

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI TARJIMASIDA IDIOMATIK- IBORALARNING FUNKTSIONAL-STILISTIK XUSUSIYATLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11563751>

Samidjanova Umida Kasimjanovna

University of Tashkent for Applied Sciences, Teacher of the department "Foreign languages"

Street Gavohar, Tashkent 100149 Uzbekistan

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti. "Chet Tillar" kafedrasi o'qituvchisi

Toshkent, Gavohar ko'chasi 100149, O'zbekiston

samidjanovaumida@gmail.com

Annotatsiya

Ingliz tilida antiteza stilistik vositasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'zbek tilidagi antiteza stilistik vositasining kommunikativ, pragmatik jihatlari tahlil qilingan. Antiteza stilistik hodisa bo'lib asosan qo'shma gaplarda uchraydi. Maqol va she'riy asarlarda antiteza juda ko'p uchraydi. Antiteza orqali so'zlovchi o'z munosabatini qanchalik kuchli ifodalay olishi ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Kalit so'zlar

stilistika, antiteza, tazod, maqol, qo'shma gap, stilema, pragmatika, kommunikativ-kognitiv, semantika, qiyosiy-chog'ishtirma tilshunoslik.

Аннотация

Стилистическое средство антитеза в английском языке имеет свои особенности, в статье также проанализированы коммуникативно-прагматические аспекты стилистического средство антитезы в узбекском языке. Антитеза – стилистическое явление, встречающееся преимущественно в сложных предложениях. Антитеза очень распространена в пословицах и поэзии. Через антитезу можно определить, насколько сильно говорящий выражает свое отношение к действительности.

Ключевые слова

стилистика, антитеза, противопоставление, пословица, союз, stilema, прагматика, коммуникативно-познавательная, семантика, сравнительно-сопоставительное языкознание.

Annotation

The stylistic means of antithesis in English has its own peculiarities, and the communicative pragmatic aspects of the stylistic means of antithesis in Uzbek are analyzed. Antithesis is a stylistic phenomenon that occurs mainly in conjunctions. Antitheses are very common in proverbs and poems. Through antithesis, it is important to know how strongly the speaker can express his or her attitude.

Keywords

Stylistics, antithesis, contrast, proverb, compound sentence, stiletta, pragmatics, communicative-cognitive, semantics, comparative-comparative linguistics.

Globalashgan, axboriy chegaralar yo‘qolib ulgurgan hozirgi davrda tarjima matnlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu esa tarjima matnlar sifatiga talabni ham kuchaytirish zaruratini tug‘diradi. Tarjima shunchaki boshqa tildagi material bilan tanishishgina emas, u boshqa madaniyat, tafakkur, dunyoqarash, bilimga yuzma-yuz kelish, undan oziqlanishdir. Dunyo tamaddunida katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan xalq va millatlarning eng ishonchli tayanchi, poydevori aynan tarjima bo‘lgan. Taniqli tarjimon Xalilova M tarjimaning ahamiyati haqida gapirar ekan: “Har qanday milliy tilning fikrni aniq ifodalash qudrati og‘zaki va yozma adabiyot amaliyotida, muloqot madaniyatida hosil bo‘ladi. Tilning ifoda salohiyati esa tillardan tillarga tarjimalarda charxlanadi. Bunga ingliz, fransuz, nemis, italyan, ispan, rus, turk tillari yorqin misol bo‘la oladi. Bu kabi tillar ko‘p asrlik faol tarjima jarayonida mislsiz boyigan, ifoda arsenaliga ega bo‘lgan”, deya ta’kidlaydi [8].

Darhaqiqat, tarjima alaloqibat tilni, tafakkurni, bilimlarimizni boyitadigan, tasavvur va fikr gorizontlarimizni kengaytiradigan vositadir.

Odatda tarjima nazariyasi tarjima jarayoni tasvirining umumiy masallarini o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Uning doirasida ishlab chiqilayotgan nazariy modellar tarjimashunoslikning barcha sohalaridagi tarmoqli tadqiqotlarga zamin bo‘lib xizmat qiladi. Ekvivalentlik nazariyasi tarjima jarayonida tillararo xoslashuvning eng samarali variantlarini izlab topish va tarjima faoliyatiga tadbiiq etish asosini shakllantiradi. Original til bilan tarjima tili o‘rtasida o‘rnatilgan munosabatlar aksi ekvivalent munosabatlarda namoyon bo‘ladi [5]. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan jumboqlar yechimi tarjimaning umumiy nazariy modelini nazoratdan o‘tkazish, unga zaruriy qo‘shimchalar kiritish imkonini tug‘diradi. Bu o‘rinda ingliz tili bilan o‘zbek tili o‘rtasidagi o‘zaro xoslashuv qirralaridagi monandlashuv jarayoni darajasi tadqiqi alohida e‘tiboga molik. Zero turli tillar o‘rtasidagi ekvivalentlik munosabatlarini aniqlash, ularning me‘yoriy

qirralarini ochib berish tarjima ekvivalenti mohiyatini mufassal ochib berishga ko'mak beradi. Tarjima va uning tahriri sifati bevosita material sifatini belgilab beradi [6]. Olimlar tarjimini ikki katta asosiy funksional turga ajratadi: badiiy tarjima va axboriy (badiiy bo'lmagan) tarjima. Badiiy tarjima – badiiy adabiyot asarlari tarjimasidir. Bunda tarjimonning bosh vazifasi asliyatdagi badiiy-estetik jihatlarni, uning qimmatini bera olish, tarjima tilida to'laqonli badiiy matn yaratishdir. Bu maqsadga erishish yo'lida tarjimon vositalarni birmuncha erkin tanlaydi va tarjima matnidagi ba'zi detallarni qurbon qilishi mumkin. Axboriy tarjimaning bosh vazifasi – biror-bir axborot, ma'lumotni yetkazish [5, 7]. U o'quvchiga badiiy-estetik ta'sir ko'rsatishni maqsad qilmaydi. Bunday matnlar qatoriga ilmiy, rasmiy, ommaviy-siyosiy, maishiy va shunga o'xshash tushdagi matnlar kiradi.

Tillararo o'zaro xoslashuv shakllarini aniqlashda stilistik troplar va figuralar o'rni alohidadir. Stilistik qiyos original va tarjima tili o'rtasida ekvivalentlikning obrazli assotsiativ turi bilan uzviy bog'lanadi [1]:

Masalan, "to hang on by one's eye lids- qil uchida osilib turmoq, ahvoli tang bo'lmoq" okkazional qo'llanilishida ayrim o'zgarishlar kuzatiladi:

What a lot of ants, all with a living to get, holding on by their eyelids in the great scramble! Boshqa frazeologik birlik "to burn one's boats/bridges - kemani yoqib yubormoq, orqaga qaytish yo'lini kesib qo'yimoq" birikmasida ham yuqoridagi holat kuzatiladi.

He left her just now declaring that she should burn her ships behind her; but Morris, after having elicited this declaration, had become conscious of good reasons for not taking it up. (H. James).

Stilistik qiyosning ekvivalent birligi fransuz tili bilan o'zbek tili mazmun semantikasining bir xilligini ta'minlasada, lekin ularning monand shakllari tarjima jarayoniga jalb etilgan tillar ichki me'yorining tizimli va funksional qirralari bilan uzviy bog'lanadi. Milliy til me'yori uning tarixiy, ijtimoiy, madaniy ildizlari bilan tutash bo'lgan bo'lgani boisi uning ruhiyati oynasi sanaladi. Shu bois ham ekvivalentlar har bir til realemalari mazmun mohiyati talablariga ko'ra ajratiladi [2]:

"It was the best of times, it was the worst of times, it was the age of wisdom, it was the age of foolishness, it was the epoch of belief, it was the epoch of incredulity, it was the season of Light, it was the season of Darkness..."

"It was" frazasining takroriy ishlatilish orqali yozuvchi Through repetition of the phrase "It was," Dickens o'quvchiga u tasvirlayotgan vaqt qarama - qarshiliklar va haddan tashqari ziddiyatlarga to'la o'tmish ekanligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, kitobxonning o'sha davr bilan hozirgi vaqtni bog'lashga yordam beradi. Anafora hissiyotni ifodalash uchun, gap yoki fikrni ta'kidlash yoki tasdiqlash vositasi sifatida ishlatiladi [4]. Misol uchun:

"Go big or go home."

"Be bold. Be brief. Be gone."

"Get busy living or get busy dying."

"Give me liberty or give me death."

"You're damned if you do and you're damned if you don't".

Nutq va yozuv haqida gap ketganda, anafora bilan so'z va iboralarga ritm berish mumkin. Bu tinglovchilarga hissiyot, ilhom, motivatsiya va hattoki, ularning xotirasini ham jalb qilish orqali kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. So'zlar yoki jumlar boshida takrorlanishning bunday namunasi, ayniqsa, tinglovchilarni jalb qilish vositasi sifatida siyosiy nutq va matnda foydalidir.

Stilistik qiyos ekvivalenti axborot tarkibida informativ, obrazli, ekspressiv, emotsional baholi, implitsit-intentsional axborotlari tashish uchun xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan stilistik qiyos keng qamrovli til belgisi bo'lib, stilistik ifoda potentsiyasi, salohiyati ko'lamini kengligi bilan ajralib turadi [3].

Xulosa qilib aytilganda, ilmiy uslubdagi matnlar keng kitobxonlarga fan va texnikaning yutuqlarini targ'ib qilishga qaratilgan. Odatda materiallar ma'lum miqdordagi raqamli ma'lumotlar, formulalar, diagrammalar va atamalardan foydalangan holda qiziqarli va qulay tarzda taqdim etiladi. E'tiborni jalb qilish uchun takrorlash, ritorik savollar, o'quvchiga murojaat keng qo'llaniladi. Ilmiy matn odatda ma'lumot beruvchi sarlavha, masalaning tarixini tavsiflovchi yoki mavzuni tanishtiruvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ilmiy matnning o'ziga xos xususiyatlari ta'kidlangan mantiq, qo'shimcha dalillar bilan takrorlash, murakkab sintaksis va kasbiy yo'naltirilgan mavzular bilan xarakterlanadi.

Turli xil funktsional uslublardagi matnlarni o'rganish, ularning parametrlarini aniqlash, ularning har birida til vositalarini tanlash va ulardan foydalanish normalari, shuningdek lingvistik va statistik tadqiqotlar nafaqat zarur, balki til va uni o'rganishning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karen van Hoek, Professor Karen Van Hoek. Anaphora and Conceptual Structure, 1997. – P. 115.
2. Ruslan Mitkov. Anaphora Resolution, 2014. – P. 16.

3. Francis Cornish, *Maitre de Conferences in General Linguistics* Francis Cornish. *Anaphora, Discourse, and Understanding: Evidence from English and French*, 1999. – P. 3.

4. Tanya Reinhart. *Anaphora and Semantic Interpretation*, 2016. – P. 45.

5. Денис Заварицкий. *Анафора на русском жестовом языке*, 2021. – С.

6. Гальперин И. Р. *Стилистика английского языка*. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», Изд.5, 2013. 336 с.

7. Тихонова Е. В. *Медиатекст как инструмент вербальной диагностики конфессиональной напряженности // Мировое культурно-языковое и политическое пространство: инновации в коммуникации: сборник научных трудов*. М.: ТрансАрт, 2014. С. 172–186.

8. Halilova M.: "O'zbek tili stilistikasi asoslari", "Farg'ona" nashriyoti, 2009.